



NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 24-mart

58-5-70-Q/25

Konimex tuman hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-41-sonli Farmoni hamda Navoiy viloyati hokimining 2025-yil 14-martdagi 74-5-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-41-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-41-sonli Farmoni hamda Navoiy viloyati hokimining 2025-yil 14-martdagi 74-5-0-Q/25 qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan quyidagilar:

a) 2025-yilda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilanganligi;

b) yangi barpo etiladigan ixtisoslashtirilgan zonalar faqat maxsus iqtisodiy zona yoki sanoat zonasi shaklida tashkil etilishi belgilanganligi;

v) sanoat zonalari faoliyati bo‘yicha:

master reja asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari qarori bilan barpo etilishi;

yer uchastkalarining boshlang‘ich ijara qiymati o‘rnatilgan tartibda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan yer solig‘idan past bo‘lmagan miqdorda belgilanishi;

g) Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi maxsus iqtisodiy zonalarini boshqarish bo‘yicha vakolatli organ hisoblanishi (turizmga ixtisoslashgan, xususiy

boshqaruvdagi maxsus iqtisodiy zonalar va qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno);

xususiy boshqaruvga berilgan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan muvofiqlashtirilishi;

sanoat zonalarini mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan boshqarilishi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan ularning faoliyati muvofiqlashtirilishi belgilanganligi;

d) maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat zonalarini xususiy (xorijiy) investorlarga boshqaruvga berish va ularga yer ajratish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda vazirlik va idoralar takliflariga asosan Hukumat komissiyasi bilan kelishgan holda bitim bilan o‘rnatilgan tartibda amalga oshirilishi belgilanganligi;

e) sanoat zonalarini direksiyalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuriga o‘tkazilishi (xususiy boshqaruvdagi sanoat zonalarini bundan mustasno) belgilanganligi;

j) Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha “yo‘l xaritasi”;

Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarining maqbullashtirilayotgan hududlari va yer maydonlari ro‘yxati;

Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarining hududidan chiqarilayotgan yer maydonlari ro‘yxati tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ijrosini sifatli ta‘minlash yuzasidan tuman chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (E. Hazratqulov), tuman investitsiyalar, sanoat va savdo shu‘basi (M. Shamshiyev) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda uch oy muddatda kichik va yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini xatlovdan o‘tkazsin va ularni qayta tashkil etish bo‘yicha takliflarni viloyat hokimligiga kiritilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari E. Hazratqulov zimmasiga yuklansin.

Konimex tumani hokimi



**RO‘ZIYEV
RUSLAN.NASIROVICH**

Konimex tumani hokimining
2025-yil 24-martdagi
58-5-70-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish
chora-tadbirlari bo'yicha "yo'l xaritasi" ijrosini sifatli ta'minlash yuzasidan tuman
ChORA-TADBIRLAR DASTURI**

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari				
1.	“Sanoat zonalari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi.	Qonun loyihasini ishlab chiqishda belgilangan tartibda viloyat hokimligiga taklif kiritish. Loyihada: yer maydonlarini auksionga chiqarish tartibini yanada takomillashtirish; direksiyalarni mahalliy hokimliklar tomonidan boshqarish tartibi; direksiyalarga soliq va budjetga ajratmalar bo‘yicha imtiyozlar berish kabi masalalar nazarda tutiladi.	2025-yil sentabr	Tuman hokimi o‘rinbosari (E.Hazratqulov) tuman investitsiyalar, sanoat va savdo shu‘basi (M.Shamshiyev), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Beknazarov), tuman adliya bo‘limi (Z.Nasimov)
Tashkiliy chora-tadbirlar				
2	Kichik va yoshlar sanoat zonalarini xatlovdan o‘tkazish.	Tumanda faoliyat yuritayotgan kichik va yoshlar sanoat zonalarini xatlovdan o‘tkazish hamda ularni yangi talablardan kelib chiqqan holda qayta tashkil etish	2025-yil iyun	Tuman hokimi o‘rinbosari (E.Hazratqulov) tuman investitsiyalar, sanoat va savdo shu‘basi

		bo'yicha takliflarni viloyat hokimligi hamda viloyat Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasiga kiritish.		(M.Shamshiyev), tuman Kadastrlar palatsi (Z.Karimov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Ruzimurodov)
3	Kichik va yoshlar sanoat zonalar ishtirokchilariga servis xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarini joylashtirish.	Kichik va yoshlar sanoat zonalarini barpo etishda ularga ishtirokchilarga servis xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarini belgilangan tartibda joylashtirish. Bunda servis xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalariga Kichik va yoshlar sanoat zonalarini ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan imtiyozlar berilmaydi.	Doimiy ravishda	Tuman hokimi o'rinbosari (E.Hazratqulov) tuman investitsiyalar, sanoat va savdo shu'basi (M.Shamshiyev)
4	Kichik va yoshlar sanoat zonalarini tashkil etish shartlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash.	Yangi Kichik va yoshlar sanoat zonalarini yuzasidan takliflarni shakllantirishda ularni faqat infratuzilma mavjud bo'lgan yoki tegishli infratuzilma bilan ta'minlash iqtisodiy asoslangan, moliyaviy va ijtimoiy samaradorligi hisoblangan biznes-rejasi mavjud bo'lgan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarida tashkil etish yuzasidan qat'iy choralarni ko'rish.	Doimiy ravishda	Tuman hokimi o'rinbosari (E.Hazratqulov) tuman investitsiyalar, sanoat va savdo shu'basi (M.Shamshiyev)

5	Sanoat zonalarida ishtirokchilariga eksport prognozlarini bajarish bo'yicha ko'maklashish.	<p>1.Sanoat zonalaridagi eksportchi korxonalarining har biriga mas'ul xodimlarni birlashtirish.</p> <p>2.Eksportoldi moliyalashtirishga ehtiyoji bo'lgan korxonalariga mablag'lar ajratish choralarini ko'rish.</p> <p>3.Sanoat zonalaridagi eksportchi korxonalariga xalqaro yarmarkalarda ishtirok etish va o'z mahsulotlarini targ'ib qilishga ko'maklashish.</p>	<p>2025-yil aprel</p> <p>Doimiy ravishda</p>	Tuman hokimi o'rinbosari (E.Hazratqulov) tuman investitsiyalar, sanoat va savdo shu'basi (M.Shamshiyev), tuman Savdo-sanoat palatasi (E.Bulegenov)
6	Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasida infratuzilma bilan ta'minlangan bo'sh turgan yer maydonlariga investorlarni jalb etish.	<p>1. Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasida zarur infratuzilmaga ega bo'lgan bo'sh yer maydonlari bo'yicha taqdimot materiallarini tayyorlash.</p> <p>2. Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasida yaratilgan imkoniyatlar va bo'sh turgan yer maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xorijiy va mahalliy ishbilarmon doiralarda, ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'ida, biznes forumlarda keng yoritish.</p>	<p>2025-yil aprel</p> <p>Doimiy ravishda</p>	Tuman hokimi o'rinbosari (E.Hazratqulov) tuman investitsiyalar, sanoat va savdo shu'basi (M.Shamshiyev), tuman Savdo-sanoat palatasi (E.Bulegenov) tuman hokimligi matbuot kotibi (A.Nematov)
7	Kichik va yoshlar sanoat zonalarida loyihalarning ishga tushirilishini jadallashtirish.	<p>1.2025-yilda ishga tushirilishi rejalashtirilgan loyihalarning har biriga mas'ullar birlashtirish.</p> <p>2.Loyiha tashabbuskorlariga doimiy ravishda ko'maklashish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish choralarini ko'rib borish.</p>	<p>2025-yil aprel</p> <p>2025-yil dekabr</p>	Tuman hokimi o'rinbosari (E.Hazratqulov) tuman investitsiyalar, sanoat va savdo shu'basi (M.Shamshiyev)

